

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**RUZIQULOV ABDULLA ALIQULOVICH**

**SIYOSIY TIZIM TRANSFORMATSIYASI DAVRIDA SIYOSIY ONG  
DARAJASIDAGI O‘ZGARISHLAR**

**23.00.03 – Siyosiy madaniyat va mafkura**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy(PhD)**

**Ruziqulov Abdulla Aliqulovich**

Siyosiy tizim transformatsiyasi davrida siyosiy ong darajasidagi o‘zgarishlar .. 3

**Рузикулов Абдулла Аликулович**

Изменения уровня политического сознания в период трансформации политической системы ..... 20

**Ruzikulov Abdulla Alikulovich**

Changes in the level of political consciousness during the transformation of the political system ..... 37

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

List of publications ..... 41

**‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**RUZIQULOV ABDULLA ALIQULOVICH**

**SIYOSIY TIZIM TRANSFORMATSIYASI DAVRIDA SIYOSIY ONG  
DARAJASIDAGI O’ZGARISHLAR**

**23.00.03 – Siyosiy madaniyat va mafkura**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ss363 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning [www.sf-ik.uz](http://www.sf-ik.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalining [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) veb sahifasiga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mavlonov Jurabek Yorqul o‘g‘li**  
siyosiy fanlar doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Jo‘raev Narzulla Qosimovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**G‘oyibnazarov Shuhrat G‘oyibnazarovich**  
siyosiy fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.Ss.01.08raqamli Ilmiy kengashning «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 yil soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz). O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fakul’teti binosi, 5-qavat, 511-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Ma‘muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-67-71; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.I.Paxrutdinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

**K.M.Mirzaaxmedov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**A.G.Muminov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan turli xil siyosiy jarayonlar fuqarolar siyosiy ongiga bevosita va bilvosita o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Bu esa, jamiyatda transformatsion jarayonlar va uning natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, mafkuraviy-siyosiy tendensiyalar fuqarolar o'rtasida siyosiy-huquqiy madaniyat va ijtimoiy-siyosiy faollikni rivojlantirishdek muhim vazifalarni oldimizga qo'yimoqda. Mamlakatlarning bugungi ahvoli va ertangi istiqboli ko'p jihatdan fuqarolarning siyosiy madaniyat doirasida siyosiy ongining shakllanganligi ayrim salbiy oqibatlariga qarshi immunitetni shakllantiradi. Shu uchun fuqarolarning siyosiy ongi darajasidagi o'zgarishlarni tadqiq etish va unga ta'sir etuvchi omillar hamda uni rivojlantirish uchun qilinayotgan sa'y-harakatlarning natijadorligini chuqur tahlil etish dolzarb ilmiy masalalarga aylanib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning ilmiy markazlar tomonidan zamonaviy mafkuraviy diskurs, siyosiy ong, siyosiy madaniyat va mafkuralar hamda ularning g'oyaviy-siyosiy rivojlanish tendensiyalariga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda transformatsion jarayonlar natijasida mafkuraviy jarayonlar tabiatining o'zgarishi, siyosiy mafkuralarning g'oyaviy asoslari va ularning tatbiq etilishidagi evolyutsion jarayonlari chuqur o'rganilib, siyosiy ongga ta'siri hamda siyosiy qarorlar qabul qilish texnologiyalarini rivojlanayotgan davlatlardagi siyosiy-mafkuraviy jarayonlar rivojiga ta'sirini ilmiy muammo sifatida tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki o'tish davrida, ya'ni postkommunistik siyosiy transformatsiya jarayonida siyosiy ong muammosi, g'oyaviy plyuralizmning o'rni, siyosiy faollik va siyosiy ongni shakllantirishda jamoatchilik bilan ishlash tajribasi, shuningdek, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoatchilik nazoratini yanada takomillashtirish mexanizmlarini tadqiq qilish davr talabidir.

Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar natijasida fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongini oshirish, ularning qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini yanada faollashtirish maqsadida ochiqlik, shaffoflik tamoyillari asosida davlat va jamiyat o'rtasidagi ortiqcha bo'lgan qog'ozbozlik hamda ortiqcha ovvoragarchiliklarning oldini oluvchi yangi tartiblar joriy etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning ma'lumot olishi, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun mohiyatini to'g'ri va to'liq anglashi uchun zamin bo'lmoqda. "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak". Shu bois, hozirda rivojlanishning yangi davrini boshlagan mamlakatimiz uchun siyosiy ongni yanada oshirish mexanizmlarini zamonaviylashtirish, uni tizimli tarzda yangilab borish ushbu muammoni o'rganishning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi

to'g'risida" va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" va 2019 yil 29 yanvardagi PQ-4139-son "Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2019 yil 8 apreldagi F-5465-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish kontsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishi hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Siyosiy tizim transformatsiyasi haqidagi ilmiy asoslangan xulosalar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma'ruza hamda nutqlarida aks etgan. Ushbu manbalar tadqiqot ishiga muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi<sup>1</sup>.

Siyosiy transformatsiya fenomenining nazariy va kontseptual masalari jahon siyosiy fan darg'alari tomonidan qayta-qayta ko'rib chiqilgan. Jumladan, rus olimlari S.Aleksashenko, B.Kapustin, M.Il'inning monografiya va ilmiy maqolalarida, qolaversa, siyosiy fanlarga oid darslik va qo'llanmalarda yoritilgan. Lekin postkommunistik siyosiy transformatsiya doirasida mamlakatimizdagi jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularda siyosiy ong masalasi ochiqligicha qolmoqda. Garchi g'arb olimlari Z.Bzejnskiy, L.Mamut, S.Xantington, A.Mel'vil', X.Lints, A.Stepan, F.Xayek, X.Arendt, K.Fridrix, R.Aron, Yo.Machkovlar ayni shu mavzuga oid asarlar yaratgan bo'lsada, lekin mamlakatimizdagi o'tish davri va siyosiy ong masalasida o'z asarlarida to'xtalib o'tishmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)da yoshlarning siyosiy madaniyati va jamiyat barqarorligi masalalari M.Keyzerov, V.Aberenkov, A.Averkin, Yu.Ageshin, Ye.Meleshkina, O.Tolpgina, V.Gulyaixin kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarning aksariyati siyosiy madaniyatning mohiyati, uning genezisiga bag'ishlangan.

O'zbekistonlik olimlar siyosiy tizimdagi o'zgarishlar va bu jarayonlarda fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning turli xil yo'nalish hamda komponentlarini Sh.Paxrutdinov, N.Jo'rayev, I.Ergashev, T.Odilqoriyev, Sh.G'oyibnazarov, B.Tuychiyev, A.Jalilov, S.Jo'rayev, A.Qodirov, U.Idirov, I.Saifnazarov, M.Qirg'izboyev, N.Umarova, T.Alimardonov, O.Jumayev, V.Kim, B.Iminov, G.Sherniyozova, L.Tangriyev, A.Xaydarov, U.Muxammadiyev,

---

<sup>1</sup> Mazkur mualliflar asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

O.Musayev, N.Shodiyev, Sh.Raximov kabi olimlar o'rganganlar. Ularning ishlarida siyosiy madaniyat siyosiy fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Jumladan, siyosiy fanlar doktori, professor Narzulla Jo'rayevning ta'kidlashicha, "Siyosiy madaniyat, siyosiy ong darajasi jamiyat hayotida inson ishtirokining qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo'lgan joyda odamlar hokimiyat ishida faolroq ishtirok etishadi. Qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi. O'z hayotlariga daxldor bo'lgan ma'muriy tadbirlarga befarq qarashmaydi. Aksincha, ularni tayyorlashda ishtirok etishadi, natijada, qarorlar ijrosi uchun o'zlari manfaatdor sifatida mas'uliyatni his qilishadi". Darhaqiqat, N.Jo'rayev o'zining "Tarix falsafasining nazariy asoslari" nomli monografiyasida "demokratiyaning siyosiy madaniyati" deganda, siyosiy tizimda o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir vaqtda fuqarolarning siyosiy faolligi darajasini nazarda tutib, jamiyatda islohotlarning o'z vaqtida va ko'zlangan natijalarga erilishishiga siyosiy madaniyatning shakllanishi siyosiy muhitga bevosita bog'liq, deb ta'kidlaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ilmiy izlanishlarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini tan olgan holda shuni yodda tutish kerakki, ushbu tadqiqotlar olib borilgan vaqtdan keyin yurtimizda bu borada, ayniqsa, jamiyat siyosiy hayotida ulkan ahamiyatga molik islohotlar, tub o'zgarish va yangilanishlar amalga oshirildi.

Umuman olganda, aynan siyosiy transformatsiya jarayonlari va bu davrda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, aynan siyosiy transformatsiya jarayonida siyosiy ong masalasi va unga ta'siri, omillarini aniqlash, siyosiy onging shakllanishi bilan siyosiy madaniyat va mafkura o'rtasidagi dialektik aloqadorlik masalalari to'liq tadqiq etilmagan. Dissertatsiya ishida aynan siyosiy transformatsiya jarayonida siyosiy ong masalasi va unga ta'sir etuvchi omillarini aniqlash, bu jarayonda milliy mafkuraning rolini kuchaytirish masalalari ilmiy tadqiq qilingan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Navoiy davlat pedogogika institutining 2017-2030-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2.4-bandidagi "Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedogogik mohiyati" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

"siyosiy transformatsiya" tushunchasi va uning modellarini ochib berish;  
o'tish davri jarayonining turlari, siyosiy transformatsiyaning boshqa o'tish jarayonlaridan farqlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;  
postkommunistik transformatsiya davrida siyosiy onging tranzitologik tadqiqotlardagi ilmiy-metodologik asoslarini tahlil qilish;  
siyosiy ongga oid qarashlar, konsepsiya, nazariyalari, uning tipologiyasi va turlarini yoritib berish;

postkommunistik transformatsiyaning o'ziga xosligi va unda siyosiy ongning o'rni, ahamiyatini aniqlash;

jamiyatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish sharoitida siyosiy yetakchilarni shakllantirishning g'oyaviy omillari, ya'ni siyosiy faollar va siyosiy elitaning jamoatchilik bilan ishlash borasida tajriba hamda muammolarini tahlil qilish;

O'zbekistonda siyosiy transformatsiya jarayoni va bu jarayonda siyosiy ongning o'rni, ahamiyati, o'tish davrida islohotlarni amalga oshirish yo'nalishlariga ta'sirini ko'rsatish;

demokratik jamiyat qurilishida fuqarolarning ongini oshirishning muammo va yechimlari borasidagi xulosalarni ishlab chiqish hamda asoslash;

demokratik jamiyat qurilishida fuqarolarni faollashtirishning muammo va yechimlari borasidagi xulosalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'yektini** jamiyatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish sharoitida siyosiy ongni shakllantirishning g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** jamiyatning siyosiy transformatsiyasi davrida fuqarolarning siyosiy ongndagi o'zgarishlari va ularning siyosiy faolligini oshirish usullarini ko'rsatib berishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ob'yektivlik, tarixiylik, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, tuzilmaviy-funksional, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, hujjatlarni o'rganish, ma'lumotni qayta ishlash, guruhlash kabi sotsiologik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

siyosiy tizim transformatsiyasining yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi ichki (amaldagi siyosiy tizimni samarasizligi, milliy manfaatlarni amalga oshirishda, islohotlarni davr talabiga moslash) va tashqi (globalashuv jarayonida yuz berayotgan siyosiy o'zgarishlar, tashqi siyosatda o'z o'ni va manfaatlarini aks ettirish zaruriyati) omillar tahlil qilinib, qolaversa siyosiy tizim transformatsiyasining siyosiy ongga to'g'ri va aksincha siyosiy ongning unga teskari proporsional ta'sir qilishi ilmiy asoslangan;

siyosiy ongning dinamik xususiyatini hisobga olib, joylarda "Ekspertlar guruhi", "Oqsoqollar kengashi" va "Yoshlar kengashi" kabi jamoatchilik guruhlari faoliyatini tashkil etish orqali joylardagi real vaziyat hamda uning sabablarini o'rganish, xulosalar berish, islohotlar yuzasidan tegishli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi fuqarolarda ishonch-mas'uliyat-daxldorlik-javobgarlik tuyg'ulari va siyosiy ongining samarali shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi dalillangan;

jamiyatda turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etishda davlat va nodavlat tashkilotlarning o'zaro ijtimoiy hamkorligi joylarda islohotlarni samarali amalga oshirishga bevosita ko'maklashishi, shu bilan birga joriy dasturlarning ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish orqali islohotlar samaradorligiga erishish hamda hamkorlikda ishlab chiqilgan preventiv chora-

tadbirlari natijasida islohotlarga nisbatan “ishonchsizlikning” oldini olib, sog‘lom siyosiy ong shakllanishiga asos bo‘lishi ilmiy asoslangan;

jamiyatining siyosiy tafakkurini takomillashtirishda oshkorlik va hisobdorlik mexanizmlaridan samarali foydalanish islohotlarning natijadorligiga xizmat qilishi bilan birga fuqarolarda turli mafkuraviy tahdidlarni vujudga keltiradigan ijtimoiy-siyosiy omillarga qarshi sog‘lom immuniteti va siyosiy ongining shakllanishga ijobiy ta’siri ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda siyosiy tizim transformatsiyasi davrida boshqaruvning o‘rni va rolini aniqlash, strategik dasturlarni ishlab chiqish va rejalashtirish texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishni o‘rganish, O‘zbekistonning xalqaro imijini shakllantirishga qaratilgan strategiyasi samaradorligini oshirish imkoniyatlari, O‘zbekistonda siyosiy xavfsizlikni ta’minlash va siyosiy riskni boshqarish hamda oldini olishning ustuvor yo‘nalishlari imkoniyatlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, Respublika “Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan hamda Telegram messenjerda muallif tomonidan “Siyosiy ong” bot-kanalida ekspress so‘rov o‘tkazilib, respondentlar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalari asosida ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan yoshlarning faolligini rivojlantirishning siyosiy va ma’naviy-mafkuraviy asoslarini o‘rganishning nazariy jihatlarini yanada boyitish, oliy ta’lim muassasalarida milliy mafkura bilan bog‘liq fanlarni o‘qitishda, ma’ruza matnlari hamda o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan ijtimoiy siyosat hamda ma’naviy-mafkuraviy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi davlat boshqaruvi organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy tadqiqotlar olib boradigan ilmiy hamda ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqotning natijalari, undagi ilmiy xulosa va takliflarni amaliyotga joriy etilayotgani bo‘yicha quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan:

yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini yanada oshirish hamda ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishga oid dastur hamda ish rejalarini ishlab chiqishda va bu dasturlarning mazmun mohiyatini yoshlarga yetkazishda ma’rifiy-targ‘ibot ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish samarali ekanligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2021-yil birinchi yarim yillik ish rejasi (Agentlikning 06.01.2021 y. 01-10/06-son buyrug‘i) 11-, 18-, 24-

bandlarini ishlab chiqishda foydalanildi va amaliyotga joriy etildi. O‘zbekiston Respublika Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmalarining 2020-2021 yillarda o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda siyosiy tizim transformatsiyasining yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi ichki (amaldagi siyosiy tizimni samarasizligi, milliy manfaatlarni amalga oshirishda, islohotlarni davr talabiga moslash) va tashqi (globallashuv jarayonida yuz berayotgan siyosiy o‘zgarishlar, tashqi siyosatda o‘z o‘rni va manfaatlarini aks ettirish zaruriyati) omillar tahlil qilinib, siyosiy tizim transformatsiyasining siyosiy ongga to‘g‘ri hamda aksincha siyosiy ongning unga teskari proporsional ta’sir qilishi doirasidagi fikirlari yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasida o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlari (konferensiya, davra suhbat, seminar va uchrashuvlar)da keng foydalanilgan (Respublika Yoshlar ishlari agentligining 2021 yil 26 maydagi 2-13-23-1393-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar agentlikning “Yoshlar dasturi” loyihasini amalga oshirishdagi yoshlarning aksiyalari, ijodiy tashabbuslari hamda yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasida o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlari samaradorligining oshirilishiga xizmat qilgan;

fuqarolar siyosiy ongini oshirish, partiyaning fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish faoliyati yo‘nalishidagi ishlarining samaradorligi asoslanib, partiya quyi tashkilotlari faoliyatining monitoringini yuritishga doir mezonlarining takomillashtirilganligi hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish jamiyatda shaxs ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirishning samarali usuli ekanligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Liberal Demokratik partiyasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasining 2020-2021 yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari ijrosi bo‘yicha ish rejasi partiya targ‘ibot tadbirlarida siyosiy tizim transformatsiyasining yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi ichki (amaldagi siyosiy tizimni samarasizligi, milliy manfaatlarni amalga oshirishda, islohotlarni davr talabiga moslash) va tashqi (globallashuv jarayonida yuz berayotgan siyosiy o‘zgarishlar, tashqi siyosatda o‘z o‘rni va manfaatlarini aks ettirish zaruriyati) omillar tahlil qilinib, siyosiy tizim transformatsiyasining siyosiy ongga to‘g‘ri hamda aksincha siyosiy ongning unga teskari proporsional ta’sir qilishi, siyosiy ongning dinamik xususiyatini hisobga olib, joylarda jamoatchilik guruhlari faoliyatini tashkil etish orqali hududlardagi real vaziyat va uning sabablarini o‘rganish, xulosalar berish, islohotlar yuzasidan tegishli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, fuqarolarda ishonch-mas’uliyat-daxldorlik-javobgarlik tuyg‘ulari va siyosiy ongining samarali shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, shu bilan birga jamiyat a’zolarining jamoatchilik ishlarida ishtirokini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, imkoniyatlari tahlil qilindi, oldiga qo‘ygan vazifalari ijrosida foydalanildi (O‘zbekiston Liberal Demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya Qo‘mitasining 2021 yil 14-iyundagi 01-27/1479-sonli dalolatnomasi). Natijada, mazkur xulosalar partiyaning elektorati hamda aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirish faoliyati yo‘nalishidagi ishlari samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, O‘zbekiston Liberal Demokratik partiyasining 2021 yilga

mo'ljallangan ish rejasini tuzishda hamda targ'ibot ishlari samaradorligining oshishiga katta hissa qo'shgan;

jamiyatda turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etishda davlat va nodavlat tashkilotlarning o'zaro ijtimoiy hamkorligi joylarda islohotlarni samarali amalga oshirishga bevosita ko'maklashishi, shu bilan birga joriy dasturlarning ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish orqali islohotlar samaradorligiga erishish hamda hamkorlikda ishlab chiqilgan preventiv chora-tadbirlari natijasida islohotlarga nisbatan "ishonchsizlikning" oldini olib, sog'lom siyosiy ong shakllanishiga asos bo'lishiga oid g'oyalardan Respublika Inson huquqi madaniyati markazi Navoiy viloyat bo'linmasining 2021 yildagi "Inson huquqi –qonun himoyasida" mavzusidagi "Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning samarali va zamonaviy mexanizmlarini joriy etish hamda ommalashtirish" nomli grant loyihaaning ikkinchi bosqichidagi rejalarni bajarishda keng foydalanildi (Respublika Inson huquqi madaniyati markazi Navoiy viloyat bo'linmasining 2022 yil 3-martdagi 7-sonli dalolatnomasi). Natijada, grant loyihasi doirasida Navoiy shahri, Karmana va Navbahor tumani fuqarolarida qonunga hurmat, o'z huquq va erkinlaridan to'laqonli ravishda foydalana olish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan inson huquqlarini ta'minlash borasidagi keng ko'lamlil islohotlarning qadriga yetish fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilgan;

siyosiy tizim transformatsiyasi va islohotlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni hamda roli, jamoatchilik nazoratining islohotlarni amalga oshirish yo'nalishlariga ta'siri va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligini tizimli yo'lga qo'yish ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarning siyosiy ongiga ta'sir o'tkazayotgan turli mafkuraviy tahdidlarning oldini olish vositasi sifatida va jamiyatining siyosiy tafakkurini takomillashtirishda oshkoralik hamda hisobdorlik mexanizmlaridan samarali foydalanish kabi g'oyalari ommaviy axborot vositalarida yangi teledasturlarni yaratish mezonlari ishlab chiqilganligiga oid xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining 2020-2021 yillar mobaynida efirga uzatilgan "Jamiyat va qonun", "Kun reportaji", "Ijtimoiy hayot", "Dolzarb mavzu", "Ochiq muloqot" kabi dasturlarda ushbu xulosalardan keng foydalanilgan va muallif bilan postkommunistik siyosiy tizim transformatsiyaning o'ziga xos jamiyatning mavjud holatini tizimli inqiroz sifatida baholash, inqirozli holatdan chiqish yo'llari va imkoniyatlarining ob'yektivligi, ya'ni ijtimoiy diagnostika, dunyoviy ijtimoiy rivojlanishning darajasi va tamoyillariga mos kelmaydigan tizimning tarkibiy qismlarini yo'q qilish, jamiyatning yangitdan o'z-o'zini anglash, uning keyingi harakatlanish yo'llarini olg'a surish va asoslash kabi xususiyatlari, unda siyosiy ongning o'rni va ahamiyatini yoritib berishga qaratilgan intervyular uyushtirilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining 2021 yil 11 iyundagi 01-02/68-sonli dalolatnomasi). Natijada, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Navoiy viloyati teleradiokompaniyasi 2020-2021 yillar mobaynida tayyorlangan ijtimoiy-siyosiy dastur va ko'rsatuvlarining sifati yanada oshishiga yordam bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 18 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro, 15 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 29 ta ilmiy ish nashr qilingan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy nashrlarda, 8 tasi respublika nashrlarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 181 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot ob‘yekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Siyosiy transformatsiya va siyosiy ongning o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlanib, uch paragrafdan iborat. Ushbu bobning “Siyosiy transformatsiya va siyosiy ong siyosiy fanlar tizimidagi muhim kategoriyalari sifatida” nomli birinchi bo‘limida, “siyosiy transformatsiya” tushunchasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan “siyosiy jarayon” tushunchasi siyosiy lug‘atlarda quyidagi xususiyatlar bilan ta’riflanadi: “siyosiy jarayonning asosiy xususiyatlarining tashqi va ichki xususiyatlariga vaqt hamda hududiy o‘ziga xosliklarni kiritish mumkin. Ichki xususiyatlarga ega siyosiy jarayon ishtirokchilarining o‘zaro aloqasi sifatida, siyosiy jarayon rivojlanishining yo‘nalishi, ob‘yektiv sharoitlari va sub‘yektiv omilning o‘rni, sodir bo‘layotgan voqealarning tartibsiz yoki anglagan holda sodir bo‘lishini o‘z ichiga oladi”.

Politologiyada siyosiy jarayon individlar, guruhlar, ularning siyosiy institutga nisbatan madaniyatlari muloqoti tarzida ham tushuniladi. Biz “siyosiy jarayon tushunchasini siyosiy munosabatlar va hodisalar ichki bog‘liqlikka ega zanjir, siyosat sub‘yektlarining hokimiyatga qaratilgan faoliyatining o‘zaro munosabati birligi” sifatida ta’riflashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

“Siyosiy jarayon” tushunchasi demokratik jamiyatlardagi rivojlanish xususiyatlarini aks ettirishi to‘liq ochib berilgan. Shuningdek, “transformatsiya” tushunchasi va uning “tranzit” tushunchasidan farqli jihatlari ham ilmiy asoslangan. Bevosita transformatsion jarayonlar bir qator bosqichlarni hamda

jamiyatdagi tizim transformatsiyasi jarayoni chegarasida sodir bo'ladigan bir qator o'zgarishlarga alohida to'xtalib o'tdik.

Shuningdek, bu doirada olib borilgan tadqiqotlarda boshqa olimlarning ham hissasi bor. Bunda yirik olim I.Kosolopov, B.Kapustining, S.Aleksashenko, Ye.Machkuv, L.Bal'tserovichlarning bu boradagi izlanishlari va fikrlarining sohani o'rganishdagi xizmatlari alohida ko'rsatib o'tilgan.

Birinchi bobning "Tranzitologik tadqiqotlarda siyosiy ong masalasi" nomli ikkinchi paragrafida XX asrning oxirgi choragida yettita har xil mintaqalardagi tendensiyalar majmui dunyoning siyosiy makoniga o'zgarishlar olib kelganligi xususida fikr yuritilgan.

70-90-yillarda har xil kontinentlaridagi dunyoning o'nlab mamlakatlarning demokratiyaga o'tishi ko'plab umidlar, dadil gipoteza va taxminlarni uyg'otdi, bir qancha oldingi nazariy xulosalarni qayta tushunib yetishga majbur qilganligi yuzasidan S.Xantingtonning yondashuvlari va K.fon Boymening bu boradagi qarashlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, postkommunistik transformatsiya tahlili va tranzitologiyaning yanada rivojlanishi borasida D.Rastou e'tiborga loyiq yana bir qator muhim qoidalarni belgilab berganligi ta'kidlangan. Paragrafda Yevropa, Rossiya va MDH davlatlarida o'tish jarayonlarning bir-biridan farqi va o'ziga xosligi ochib berilgan.

Bundan tashqari mazkur paragrafda "siyosiy ong" tushunchasi va uning hozirgi zamon siyosiy fanining asosiy tushunchalaridan biri sifatida ko'rib chiqildi.

Dissertatsiyada "siyosiy ong" deganda, sub'yektning muhitning siyosat bilan bog'liq bo'lgan qismini idrok etish natijalari, shuningdek, uning siyosat bilan bog'liq harakatlari andozasining miyada hosil bo'ladigan in'ikosi ekanligi dalillandi.

Tadqiqotda siyosiy ong – siyosiy munosabatlar va manfaatlarning in'ikosi, ma'lum tushunchalar, ideallar, qarashlar, nazariyalar ko'rinishida ifodalangan siyosiy hodisalarga berilgan baho sifatida ko'rib chiqilgan. Siyosiy ongning bir qancha funksiyalari qayd etilgan bo'lib, siyosiy ong bir qancha darajalarda farqlanishi ochib berilgan.

"Siyosiy mafkura" siyosiy ongning hokimiyat munosabatlariga faol ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim shakllardan biridir. Tegishli atama paydo bo'lgan davrdan beri (uni fransuz olimi A.de Tresi XVIII asrda ilmiy muomalaga kiritgan) fanda bu ma'naviy hodisaga nisbatan har xil qarashlar vujudga keldi. K.Mangeym uni soxta tasavvurlar majmui deb ta'rifladi. Ammo u siyosiy mafkuraning funksional xususiyatlarga, shu jumladan, uning odamlarni jipslashtirish, ularning siyosiy g'ayratini birlashtirish imkoniyatiga katta e'tibor berdi.

XIX asrda siyosiy mafkura sifatida anarxizm nazariy jihatdan shakllandi (M.Shtirner, P.Prudon, M.Bakunin, E.Reklyu, J.Gil'om, P.Kropotkin va bosh.). XIX asr oxiri – XX asrning boshida nazariy siyosiy ongning qarama-qarshi tizimi va uning kichik tizimlari etatizm hamda anarxizmning shakllanish jarayoni yakunlandi. Shundan so'ng kichik tizimlarning murakkablashuvi tegishli tiplarning g'oyalari va doktrinalarini ishlab chiqish, nazariyalar, siyosiy tafakkur oqimlarini

tip doirasida turkumlash, ularni zamonga moslashtirish jarayonlari sodir bo'lganligi dissertatsiyada ko'rsatib berildi.

“Markaziy Osiyo davlatlarida siyosiy transformatsiyani tadqiq etishning o'ziga xos jihatlari” nomli uchinchi paragrafda Markaziy Osiyo davlatlarida o'tish, ya'ni 1991-yildan keyin postsovet hududining siyosiy almashinuvi to'g'risida to'xtalib o'tilgan, aynan ushbu davlatlarda siyosiy tizim transformatsiyasining o'ziga xos jihatlari alohida e'tibor qaratilgan va deyarli barcha MDH, xususan, Markaziy Osiyo respublikalari qariyb bir asr mobaynida qaram davlatlar sifatida ko'rilganligi asoslagan. 1991-yilgacha sobiq Sovet Ittifoqi sifatida o'zida 15 ta respublikani birlashtirgan bu imperiyaning parchalanishi natijasida dunyoning siyosiy xaritasida yangi davlatlar paydo bo'ldi. Bu nafaqat sobiq sovet davlatining bo'linishi, balki bu makonda yashovchi xalqlarning sobiq Sovet Ittifoqi milliy o'ziga xosligi ham bo'linib ketdi. Bu nafaqat milliy identifikatsiyani, balki klan, konfessiyali, mintaqaviy va boshqa identifikatsiyani takomillashtirishni boshlaganligi ta'kidlab o'tilgan.

Milliy va davlat qurilishi kontekstida siyosiy o'zgarish haqida so'z yuritar ekanmiz, so'nggi paytlarda demokratiya taqdiri masalasi milliy davlat tizimi, hukumat shakli va milliy mafkura haqidagi ilmiy hamda siyosiy qarashlarning muhim qismiga aylanganligi va bu savolni o'rganish bizni sobiq sovet hududida demokratik nuqtai nazardan shunchalik aniq emas degan fikrga olib keldi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, demokratiya nafaqat siyosiy rejimlar va biz ko'rib chiqayotgan mamlakatlar rahbarlarining xatolaridan yoki konservativligidan, balki tarix va geosiyosat bilan bog'liq bo'lgan chuqur jarayonlar tufayli ham kafolatlanmaganligiga urg'u berilgan.

Biz Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonda sodir bo'lgan o'zgarish jarayonlarini o'rganish ularning mazmuni, yo'nalishi va xarakteristikalari, milliy-mintaqaviy dualizm haqida ma'lumotlarni keltirdik.

Ilmiy ishning **“Postkommunistik siyosiy transformatsiya jarayonida siyosiy ongning o'rni va roli”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch paragrafdan iborat bo'lib, “Siyosiy ongga ta'sir etuvchi omillar” nomli birinchi paragrafda o'tish davrini boshdan kechirayotgan davlatlar uchun aholining siyosiy ong darajasining baland yoxud pastligi muhim omil ekanligi isbotlangan. Shu bilan birga bu davrning muddati ham xuddi shu omilga bog'liqdir. Aholining siyosiy, huquqiy bilim va ko'nikmalarining oshishi natijasida siyosiy ongning to'g'ri baholash funksiyalarini shakllantiradi hamda o'tish davrida qonundan tashqari faoliyat yuritayotgan ayrim “mansabdorlar”ni, ijtimoiy adolat prinsiplarini buzishlariga yo'l qo'ymasligi, aholining farovon yashashiga, o'z huquqlaridan to'liq foydalanish uchun to'sqinlik qilishlariga barham beradi. Chunki davlat tomonidan chiqarilayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar va qonunlarning o'z vaqtida amal qilishi aholining siyosiy ongiga bog'liqligi haqida so'z yuritiladi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan tuzumlar uchun siyosiy hokimiyatning almashish mexanizmi hokimiyatga kelish mexanizmiga qaraganda muhimroqdir. Nodemokratik tuzumlarda hokimiyat almashishining asosiy mexanizmlari, V.Gelmanning fikricha, inqilobiy, isyon va elitalar bitimidir. Inqilob

postkommunistik mamlakatlarga xos emas, elitalar bitimi esa, aksincha, siyosiy ishtirokchilarning kelishuvini nazarda tutadi.

Ko'zga ko'ringan siyosatchilar siyosiy ongning ikki turi haqida gapirishadi, lekin muallifning fikricha, maxsus va ommaviy yoki guruhlarning hamda individual siyosiy ong, siyosiy ongning o'zigina bugungi kunda o'tish davrini boshidan kechirayotgan jamiyatlardagi holatlarga to'liq javob bermasligini va yana ilmiy yangilik sifatida "majburiy siyosiy ong" shaklini taklif etgan.

